

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.P.Jurayev XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida yer egaligi tizimi va uning o'ziga xos jihatlari.....	285
Sh.Sh.Jumayev Farg'ona viloyatidagi yevangel xristian baptistlar jamoasi tarixi va bugungi kundagi faoliyati	293
K.Abdurakhmanova, M.Jurabekova Reflection of folk medicine in the elements of primitive religion (the example of Jizzakh)	297

ADABIYOTSHUNOSLIK

S.Mirzaeva, N.Y.Usarova A comparative analysis of the characters of king Arthur and Alpomish in english and uzbek folklore literature	301
A.G.Sabirdinov Jadidchilik, muxtoriyat, mustaqillik	307
G'.O.Xolbutayev Askiya-so'z san'ati, hozirjavoblik va zukkolik mahorati	310
O.Barziyev, F.Baxtiyor Sayohat taassurotlari bilan bog'liq poetik turkumlar tasnifi	317
S.A.Xodjayev Folklor namunalari uchlik timsoliga asoslangan ramzlar	323
H.K.Sabirov, B.A.Giёsova Движение джадидизм и узбекская детская литература	326
G.Ch.Muratova G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qahramon ruhiy olami tasviri	329

TILSHUNOSLIK

N.R.Gafurova O'zbek va ingliz tillaridagi o'zlashma so'zlar va neologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari	333
Q.Sh.Kaxarov, D.M.Dehqonova O'zbek va ingliz tillarida iboralarning qo'llanishi.....	338
Y.E.Ro'ziboyeva Ingliz va o'zbek tillaridagi estetik qadriyatlarni ifodalovchi maqollarning lingvakulturologik xususiyatlari.....	341
N.R.Gafurova Neologizmlarning tarjimada ifodalanishi va o'ziga xos xususiyatlari	344
M.G.Khoshimov Problems of general and typological theory of composite sentence with a parenthetical clause as an invariant type of syntactic unit	347
D.M.Yuldasheva, M.A.Ermatova, N.U.Abdumalikova Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida	354
M.M.Aslonov The educational process and content of educational activities in the "House of Bukhara education"	358
Z.V.Alimova Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi forsiy sinonimlar xususida	362
G.R.Mamadaliyeva Ingliz va o'zbek tillarida "Foot/Oyoq" leksemalarining semantik tahlili.....	367
P.Sh.Kaxramonova Badiiy asar tili va ekolingvistika	373
H.U.Davlatova Muloqotning nazariy asoslari hamda sohaga oid qarashlar	376
H.U.Davlatova, H.Abdurahmonova Milliy muloqot kompetensiyasini shakllantirish omillari	380
Z.V.Alimova, M.Rasulova	

ASKIYA-SO‘Z SAN‘ATI, HOZIRJAVOBLIK VA ZUKKOLIK MAHORATI

АСКИЯ-ИСКУССТВО СЛОВА, ОТВЕТСТВЕННОСТЬ И ИНТЕЛЛЕКТ

ASKIA-THE ART OF WORDS, PRESENT RESPONSIBILITY AND INTELLIGENCE

Xolbutayev G‘ayratbek Oybek o‘g‘li¹¹Andijon davlat universiteti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**Annotatsiya**

Ushbu maqolada askiyada mavzu ijrochilarining mahorati, topag‘onligi, hozirjavoblighi, tafakkurining o‘tkirligini sinash maqsadida hayotimizning istalgan ijtimoiy masalasidan iborat bo‘lishi, askiya yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo‘lishi haqida so‘z boradi. Askialarning ma‘naviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o‘rni, askiya matnlari badiiyatining o‘ziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассмотрено мастерство исполнителей, отзывчивость и остроты слов исполнителей, аския основана на юморе, построена на основе юмора, вызывает смех. Выделены роль аскии в развитии нашей духовной жизни и художественного мышления нашего народа, особенности искусства текстов аскии, необходимость специального исследования исполнительского стиля и мастерства исполнителей аскии.

Abstract

This article discusses the skill of the performers, the responsiveness and sharpness of the words of the performers, askiya is based on humor, built on the basis of humor, causes laughter. The role of Askiya in the development of our spiritual life and the artistic thinking of our people, the peculiarities of the art of Askiya texts, and the need for special research of the performance style and skills of Askiya performers are highlighted.

Kalit so‘zlar: askiya, folklor, shirinkor, zakiy, payrov, o‘tkir zehn, kulgi.

Ключевые слова: аския, фольклор, ширинкор, закий, пайров, остроумие, смех.

Key words: askiya, folklore, shirinkor, zakiy, payrov, wit, laughter.

KIRISH

Dunyo folklorshunosligida mustaqil janr bo‘lgan o‘zbek askiyasining xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan noyob obyektlar ro‘yxatiga kiritilishi, o‘zbek askiyasining janr tabiati, tasnifi, badiiy estetik mohiyatini folklorshunoslikning yangi zamonaviy konsepsiyalari asosida o‘rganish hamda monografik tadqiq etish folklorshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Askiya janridagi milliy ruh ifodasi, folklor janrlarining hayotiy-maishiy funksiyalari, askiyaning badiiy-estetik vazifadorlik ko‘lami taraqqiy topishidagi o‘rnini belgilab ko‘rsatish zarur. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining nechog‘li dolzarbligini belgilab beradi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining turmush tarzi, boy tarixi va madaniyati, ular mazmunidan kelib chiqadigan didaktik xulosalar, xalqona pand-nasihatlarini o‘zida ixcham badiiy aks ettirgan askialarning so‘z san‘ati taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasidagi o‘rnini o‘rganishga e‘tibor oshirildi. Mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan milliy askiya va qiziqchilik san‘atini asrab-avaylash, keng targ‘ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazish maqsadida 11.07.2023 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-222-sonli “Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori [1] bunga yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi so‘z san‘ati bilan aloqador folklor asarlarini o‘zlikni ifoda qilishning og‘zaki shakllaridan biri sifatida har tomonlama chuqur o‘rganib, bu badiiy matnlar xalqimizning ijtimoiy, siyosiy, badiiy-estetik qarashlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllanganligini yaxlit holda kuzatish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Askiya o‘zbek folklorining mustaqil janri sifatida XX asrning boshlarida dastlab etnograflar tomonidan o‘rganila boshladi. Bu borada A.L.Troitskayaning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi [26, 144-151]. Olima o‘zining o‘zbeklar haqidagi kuzatishlari va dala yozuvlari asosida askiyaning xalq orasida qadimdan qiziqchilar tomonidan ijro etilishi, uning ba‘zi turlari borasida o‘z mulohazalarini bayon qiladi. Jumladan, tutol askiya shaklining yo‘qolib ketgan ko‘rinishi borasida

ADABIYOTSHUNOSLIK

mulohazalarini bildiradi. XX asr o'rtalarida atoqli folklorshunos Hodi Zarifov rahbarligida R.Muhamadiyev o'zining nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan [10, 233]. Askiya R.Muhamadiyev tomonidan qo'lga kiritilgan nazariy xulosalar asosida o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida Oliy ta'lim muassasalari darsliklaridan o'rin oldi [11, 288]. Yangi asrga kelib o'zbek folklorining kulgiga asoslangan askiya janri o'zbek tilshunosligida lisoniy jihatdan tadqiq etildi [3, 135]. Biroq xalq ijodida kulgi muammosiga bag'ishlab jahon ilm-fanida ko'plab tadqiqotlar yaratilgan [23-27]. Xorijlik tadqiqotlar kulgining psixologik mohiyatini ochib berish, kulgining ijtimoiyligi va siyosiy vazifalari kulgi san'atning alohida ko'rinishi sifatida va umuman kulgini alohida estetik hodisa sifatida o'rganishgan. O'zbek filologik ilmida R.Muhamadiyev askiyaning folklor janri ekanligini asoslagan bo'lsa, X.X.Do'smatov askiyaning lisoniy masalalarini tadqiq etgan, xolos. Kulgiga asoslangan askiya janri matnlarining psixofolkloristik tadqiq etish, komik matnning tinglovchi ruhiyatiga ta'siri, askiyaning kulgi nazariyasiga mutanosibliigi kabi masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada askiyada mavzu ijrochilarining mahorati, topag'onligi, hozirjavobligi, tafakkurining o'tkirligini sinash maqsadida hayotimizning istalgan ijtimoiy masalasidan iborat bo'lishi, askiya yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo'lishi haqida so'z boradi. Askiyalarning ma'naviy hayotimiz va xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rni, askiya matnlari badiyatining o'ziga xosliklari, askiya ijrochilarining ijro uslubi va mahorat qirralari alohida tadqiq etish zarurati ochib berildi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Askiya folklor janri sifatida ikki va undan ortiq kishilar tomonidan taraf-taraf bo'lib ijro qilinadigan bellashuvga asoslangan, mohiyatida hazil-mutoyiba yetakchilik qiladigan dialogik yoki polilogik nutqdir. U og'zaki tarzda og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib keladigan jamoa tomonidan yaratilgan noyob og'zaki adabiy asar bo'lib, xalq og'zaki badiiy ijodiyoti namunalarining tabiatiga xos bo'lgan badiiy, estetik, didaktik vazifalar bilan birga psixologik vazifani ham bajaradigan og'zaki so'z san'ati namunasidir.

Odatda, folklorshunoslikda askiya janridagi asarlarni lof janridagi asarlar bilan yonma-yon qo'yib kelish an'anasi mavjud. Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, lof ham ikki ijrochi tomonidan ijro etiladi, biroq loflarda mubolag'a va bo'rttirish san'atidan keng foydalanish, loflarning epik voqelik tasviriga asoslanishi, lofda tag ma'no ishtirok etmasligi uning spetsifik xossalaridan biri bo'lib, askiyadan ajratib turadi.

Ingliz adabiyotshunosligida M.M.Baxtinning adabiy janrlar borasidagi nazariy qarashlariga tayanishadi. Ular adabiy asarni nazm yoki nasriy uslub asosida ikkiga ajratib, keyin ularni ichki turlarga bo'ladi. "Janrlar o'zining badiiy texnikasi, toni, mundariyasi, ba'zan hajmi bilan bir-biridan farqlanadi. Ko'pincha kichik guruhlar, nozik va zo'rg'a aniqlanadigan tafovutlar janrlarning farqlanishiga asos bo'ladi. Epopeya, tragediya, komediya va badiiy publitsistika kabilar nasr yoki nazmiy shaklda bo'lib, adabiyotning umumiy janrlari sanaladi. Bundan tashqari, satira, allegoriya yoki pastoral kabi janrlar yuqorida sanab o'tilganlar tarkibida nafaqat janr osti, balki aralash janr sifatida namoyon bo'lishi mumkin" [17, 3]. M.M.Baxtinning mazkur tavsifi adabiy janr va adabiy tur tushunchalarini ochib berishga nechog'li xizmat qilishi o'quvchi hukmiga havola. Adabiy asarning texnikasi, toni, mazmuni va hajm jihatdan ajratilishi ta'rifi ham u qadar o'zini oqlamagan. Bu ta'rif adabiy janrlarni ajratishga ma'lum ma'noda xizmat qiladi, - degan fikrga kelishimizga olimning janr osti va aralash janrlar atamasi borasidagi mulohazalari xalaqit beradi.

Nemis adabiyotshunosligida ham epos, poeziya va drama badiiy adabiyotning asosiy janrlari sifatida talqin qilinadi. Odatda, adabiy matnlar uch adabiy janrlardan biriga mansub bo'ladi. Adabiyotning uch asosiy janrlari – epos, poeziya va drama. Adabiy janrlar voqelikni hamisha tashqaridan ta'riflaydi. Bu shuni anglatadiki, badiiy matnlarni tartiblashtirish, o'xshashlik yoki farqli xususiyatlariga ko'ra ularni umumlashtirish va farqlash uchun urinishlar qilinmoqda. Bu farq har doim ham aniq emas, chunki ko'plab chegara holatlari mavjud. Ko'rinadiki, nemis adabiyotshunosligida ham adabiy turlar borasida qat'iy nazariy to'xtamga kelinmagan.

Ozərbayjon adabiyotshunos olimi Elxon Nasafovning "Adabiyot nazariyasi" nomli kitobida "Badiiy adabiyot hayot hodisalarini, insonning istak va orzularini aks ettiradi. Hayot hodisalarini aks ettirmoq nuqtai nazaridan adabiy navlar uchga bo'linadi: epik, lirik va dramatik nav. Epik asarlar

qissalar yoki tavsiflar asosida, madhiyalar asosida lirik tip, vizual tasvir asosida dramatik tipda yozilgan. Ushbu turdagi adabiyot og'zaki xalq adabiyotida ham, yozma adabiyotda ham uchraydi" [4, 36].

Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti namunalarini tur va janrlarga ajratish taniqli o'zbek folklorshunoslari M.Jo'rayev va J.Eshonqulovlar tomonidan to'g'ri tasniflanadi. Olimlar xalq ijodiyoti ta'lim yo'nalishi talabalari uchun yozgan o'quv qo'llanmasida "Folklorshunoslikda tur deyilganda voqelikni ifodalash yo'li, usuli tushunilsa (epik, lirik, dramatik), janr deganda badiiy shakl tiplari (doston, ertak, qo'shiq, maqol...) tushuniladi", [6, 180] – deb izohlaganlar. Ustoz folklorshunoslarimiz mulohazalariga tayangan holda xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarining shakl tiplariga ko'ra ichki guruhlarga ajratish muayyan adabiy janr haqida tasavvur hosil qilishimizga asos bo'ladi.

Janr – san'at va adabiyotda voqelikni tasvirlash uchun tutilgan yo'l, uslub bo'lib o'ziga xos ichki qonun va talablarga egadir. Adabiyot va san'at asarlari alohida bir-biridan farq qiladigan stilda yozilib, janr qoidalariga bo'ysundiriladi [10, 233].

Folklorshunoslikda xalq tomonidan og'zaki ijro qilinadigan asarlarning ijro o'rni va uslubiga ko'ra farqlash an'anasi ham mavjud. Og'zaki asarning qay tariqa, kim tomonidan, qayerda ijro etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu nuqtai nazardan yondashganimizda askiya o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining alohida mustaqil janridir. Askiyaning poetik janr sifatida tabiati tahliliga e'tiborni qaratsak.

Darhaqiqat, askiyada ijrochilar tarafma-taraf bo'lib, ikki guruhga ajraladilar va ular o'zaro so'z o'yini qilib, muayyan mavzu doirasida fikr kurashi olib borishga asoslangan bahsni namoyish etadilar. Askiya ijrochilarining professional tayyorgarlikka egaligi, aniqrog'i, ularning tug'ma so'zga chechanlik iste'dodi sohibi bo'lishi bu janr namunalarining yaratilishi va ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirjavoblik askiyachiga xos bo'lgan muhim talablardan biridir. Negaki askiya mavzusi kutilmaganda maydonga chiqadigan mavzu. Birinchi askiyachi kulgi qo'zg'ash uchun skrip sifatida tanlagan mavzuni qolgan askiya ijrochilari mantiqiy izchillikda davom ettirishi lozim. Mazkur talab ijrochidan hozirjavoblikni talab etadi. "Hozirjavoblik – askiyaning eng muhim sharti, chunki biror taraf o'z vaqtida ma'noli va ustun javob qaytara olmasa (fikrlar musobaqasida to'xtash, uzilish - pauza bo'lsa), kulgining avji to'xtaydi, demak, raqib fikrining oqimiga kuchsizlik alomati sezilib qoladi. Hozirjavoblik og'izga kelgan gapni gapiraverish emas, albatta, balki bu fikr, zehn, idrok hozirjavobligidir [10, 233]. R.Muhamadiyev to'g'ri ta'kidlaganidek, hozirjavoblikda fikrning mantiqiy, izchil rivojlanishi, tanlangan mavzu ustida fikrlash, tafakkur va zehnni ishlatish, idrok etish, tez fahmlash, faraz va tasavvur qilish tezligi va o'tkirligi o'z ifodasini topishi lozim. Bundan tashqari, raqib tomonidan tashlangan so'z luqmasiga undan ko'ra ustunroq va madaniyroq, obrazliroq, mubolag'aliroq qilib javob qaytarish ham hozirjavoblikka xos belgilardan sanalib, ijrochining san'atkorona mahoratini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi.

Askiya yig'inda ishtirok etayotganlarning diqqatini tortish, turmush tashvishlaridan biroz bo'lsa-da chalg'itish, ularning kayfiyatini ko'tarish maqsadida ijro etiladigan folklor janri. Askiya matnida so'zning binar vazifasi komikostimulyatsiyani yuzaga keltirar ekan, tinglovchilarning tasavvurida askiyada tasvirlanayotgan kartina, tushuncha hukmronlik qiladi, aytuvchi va uning holati tag ma'nodagi tasvir bilan uyg'unlashuvi natijasida tinglovchilar ongiga ijobiy ta'sir etish kuchiga aylandi. Tinglovchining ongiga ta'sir ko'rsatish orqali uning ko'z o'ngida jonlangan yangi kartina tasviri kulgi qo'zg'ashga sabab bo'ladi. Mana shu kulgini hosil qilishdagi askiyaning roli uning psixologik vazifasini tashkil etadi.

Biz, odatda, folklor asarlarini tadqiq etganimizda materialning poetik va estetik vazifalarini aniqlash bilan kifoyalanamiz. Biroq xalq og'zaki ijodi durdonalarining ongimiz va ruhiyatimizga ta'siri masalalarini aniqlashni e'tibordan chetda qoldiramiz. Aksariyat tadqiqotchilarimiz folklor namunalarining ruhiyatga ta'siri masalasi adabiyotshunoslikning masalasi emas, deb qarashadi. Biroq adabiyotning zarurati borasida gapirganda, adabiy asar ma'naviyatimizning muhim va ajralmas qismi ekanligini e'tirof etadilar. Aslida, adabiyot u xoh og'zaki, xoh yozma shaklda bo'lsin, inson ruhiyatini boshqarishga, unga ta'sir ko'rsatish qudratiga egadir. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlaridagi adabiyotning o'rniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, adabiy materialning hayotiyliigi uning kishilar ongi, tafakkuri, dunyoqarashini shakllantirish, ularni ma'lum maqsad sari yo'naltirish, birlashtirish, muayyan maqsadga undash ekanligining guvohi bo'lamiz. Og'zaki ijod namunalarining

ADABIYOTSHUNOSLIK

ham muayyan mafkura tizimiga bo'ysundirilganligi uning tarbiya va ruhiy ta'sir vositasi ekanligini ko'rsatadi. O'tgan asrning o'rtalarida yaratilgan askiya janriga mansub matnlarni tekshirish natijasida ularning mavzu ko'lamidan o'sha davr mafkurasiga xos bo'lgan siyosiy qarashlarning izlarini ko'ramiz. Bu askiyachilik mavzularida chorvachilik, pillachilik, paxtakorlik bilan bog'liq mavzularning, kollektivlashtirish xo'jaligi hayotini aks ettirishga qaratilgan askiyalar, mustaqillik davrida yaratilgan askiyalarda yangi mavzulardagi "Futbol", "Boks", "Besh tashabbus" kabi askiyalar maydonga kelganligiga guvoh bo'lamiz.

Askiya janri va uning shakllari takomillashuvida xalq og'zaki badiiy ijodiyotiga xos turli uslublar, tasvir vositalari, so'z o'yinlari muhim ahamiyat kasb etadi. Farq'ona vodiysida askiyaning eng ko'p tarqalgan va ommalashgan turi bu payrovlardir. **Payrov** – izchil fikrlar oqimi bo'lib, askiyaning mukammallashgan ko'rinishidir [10]. Payrovda askiyachilar tomonidan mavzu doirasiga ko'tarilgan predmetning barcha jihatlarini atroflicha tag ma'noga ega so'zlar va ibora, o'xshatishlar asosida ochib berilishi talab etiladi. Odatda, tavsiflanayotgan predmet o'zining turli qirralari bilan tinglovchini kulgiga undashi lozim. Uning har bir tavsifi bosqichma-bosqich kulgi tempini oshirib borishi, oxirgi tavsif esa kulgi jarayonida mutlaq portlash effektini berishi zarur. Demak, tanlangan biror-bir predmetning turli xususiyatlarini yashirin ma'noli sifatleri bilan hamrohlikda ifodalashga qaratilgan, predmet sifatlarini to'la ifodalagan, muayyan sujet tizimini tashkil etgan va mantiqiy izchillikka asoslangan, binar mohiyat kasb etuvchi so'zlar ishtirokida kulgi qo'zg'ashga asoslangan dialogik yoki polilogik nutq askiyaning payrov shaklidir.

Askiyaning yana bir shakli zarofat deb yuritiladi. "Askiya zarofat negizida yaratilgan. XIV-XVI asrlarda "zarofat" atamasi keng ishlatilgan. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Binoiy, Xondamir, Vosifiy asarlarida ushbu atama ko'p uchraydi. Zarif kishilar o'rtasida oddiy uchrashuvlarda, adabiy majlislarda, yig'in va ziyofatlarda bo'lib o'tadigan hazil-mutoyiba, badihago'ylik, xushchaqchalik zarofat deb atalgan. Jamoa, jo'ralar hakamlik vazifasini bajargan. Zarofat askiyadan kengroq tushuncha, negaki askiyachi so'z o'yini bilan gap to'qib, harifini kimgadir, nimagadir o'xshatib kuladi va kuldiradi, zarofat namoyandasi – zarif-zurofa esa gap bilangina cheklanmaydi, kulgili she'r to'qish, muammo va lug'z yechish, latifa va rivoyat aytish yo'li bilan ham o'z zukkoligi, donoligini namoyish etib, harifini kulgi ostiga oladi" [3, 135].

Tarixdan ma'lumki, zariflar, odatda, so'zga usta, shirinsuxan, nozik ta'b, she'riyatdan xabardor, o'qimishli kishilar bo'lishgan. Demak, zarofat ijrochilaridan o'qimishli va shoir tabiat bo'lish talab etilarkan. Payrovda bunday talab qo'yilmaydi.

Askiyaning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri tural deb ham yuritiladi. Tural lokal xarakter kasb etib, Marg'ilingagina xosdir. Tural ijrochilari turalni she'riy shaklda ijro qiladilar. Tural talablariga ko'ra bir bayt she'r to'qiladi. Tutalda hozirjavoblik bilan qofiyali, radifli, bandli matn tuzilishi jihatdan she'riyatga yaqin turadi. "Tural" atamasi tutamol, mujmal, tuturiqsiz degan ma'noni anglatadi [3, 135]. Shunga ko'ra, ko'pincha, baytning birinchi misrasi egri mazmunda boshlanib, ikkinchi misrada gap ustalik bilan ijobiy mazmunda so'z o'yiniga aylanadi. Tutalda komik holat dastlabki jumla yoki misradagi ma'noning keyingisiga zid kelishidan hosil bo'ladi. Tutalning ikki guruhga bo'linishi, kulgiga asoslanishi, tag ma'noli so'zlar ishtirokida so'z o'yini hosil qilishi, dialogik nutqdan tashkil topishi va musobaqa tarzida namoyon bo'lishi askiya poetik belgilarini tashkil etadi. Shuningdek, tural ham askiya singari yig'inlarda, sayllarda, bayramlarda ijro qilinadi.

Askiyaning yana bir o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bu *shirinkorlik* deb yuritiladi. M.Qodirov va X.Do'stmatovlarning qayd etishicha, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarida askiyaning "shirinkorlik" degan turi mashhurdir [14, 105]. Hazilkash, chaqchaqchi, qiziqchi, har to'g'rida gapirib odamlarni kuldirib yuruvchilar "shirinkor" deb ataladilar. "Shirinkor", odatda, suhbatni qizdiruvchi, shirin qiluvchi ma'nosini anglatadi. Shirinkorlar odamlarga yoqmaydigan hodisa va predmetlar, tasodiflar va sarguzashtlarni mavzu qilib oladilar. Ular askiyachilar kabi kishilarni boshqa narsalarga o'xshatib ham kuladilar. Shirinkorlikda, asosan, yumor hukmronlik qiladi:

Hazilkash: Hormang, bobo, tani-joningiz chog'mi?

Shirinkor: Bobo dema-yey! "Bobong" og'zingdan chiqib yoqangga tirmashsin. Hali manda qirq norning kuchi bor, qirchillama yigitman...

Hazilkash: Nega bo'lmasa soqol-mo'ylovingiz oq?

Shirinkor: Tegirmonga kirgan edim, changi urib oqarib qolgan-da, nodon. Shuniyam bilmaysanmi?

Hazilkash: Shunday qilib, “qirchillama yigitman” deng?

Shirinkor: Ha.

Hazilkash: Gapingiz rost bo'lsa, keling bir bellashaylik, qani.

Shirinkor: Qo'y-yey, boshingni yoqangdan chiqarib qo'yib, tovondor bo'lib yurmay tag'in... [3, 135]

Ko'rinadiki, shirinkorlikda ikki kishi tarafma-taraf bo'lib, dialogik nutq orqali kulgi qo'zg'ashga harakat qilgan. Bularning biri hazilkash, ikkinchisi shirinkordir. Demak, shirinkorlik ham sayllar, gap-gashtaklar, to'ylar, bayramlarda, tomoshabinlarga yaxshi kayfiyat bag'ishlash, ularning kayfiyatlarini ko'tarish, kuldirish maqsadida ijro qilinadigan folklor janridir. Shirinkorlikda askiya singari tag ma'noli so'zlardan foydalanish usuli yetakchilik qilmaydi. Balki bunda hamma biladigan narsani aytib kulgi qo'zg'ash mahorati talab etiladi. Keltirilgan misoldagi shirinkorning hazilkash tomonidan kurash tushish taklifiga bergan javobi “kallangni yoqangdan chiqarib qo'yib, tovon to'lab yurmay tag'in” kabi. Aslida, kallani yoqadan chiqarish deganda hech narsa qila olmaslik tushuniladi. Shirinkor o'zining mana shu hech narsa qila olmasligini yashirish maqsadida tovon to'lashdan qo'rqishini izhor etadi. Tovu to'lash, odatda, bir kishi boshqa bir kishiga og'ir zarar yetkazsa, talab qilinadigan jazo turi. Tinglovchilar shirinkor nutqida ifodalangan fikrlar izchilligi va uning mahorat bilan hozirjavoblikda qaytargan mulohazasini eshitishi bilan kulgi ko'tariladi.

“Kosibchilik” payrovi

1-askiyachi: – Kosibchilikka sal-pal o'rganay deb harakat qilganman. Hozir ishni qaydan boshlashni bilmay, terini junini yulib o'tiribman.

2 - askiyachi: – O'tirilib kiysangiz, oyog'ingiz etikni yarmiga borganda kiyilmay qiynaydi sizni. Yotvolib, oyog'ingizni ko'tarib, qo'lingiz bilan tortsangiz, kirib ketardi.

3 - askiyachi: – Orqa poshnasiga 2 mixni ayab qoquvdim. 2 kundan keyin qaytarib olib kelishdi-da. Menikiga suv kirib ketadigan qilib qo'yibsiz deb.

4 - askiyachi: – Rahmatillo, zakaz bilan tikdim. Havas qilib kiyib yursin deb unikiga bir g'arch qo'yib qo'ydim.

5 - askiyachi: – Qahramon akamni didi nozikroq. Poyabzalni ham tanlab kiyadi, yoqsin deb ikki kun rosa terisiga ishladim.

6 - askiyachi: – Unikidan-la keyin Rahim shippak deb qoldi.

7 - askiyachi: – Poyabzalning oson kiyilishi uchun bog'ichlik qilaymi yo zamochkalik qilib tikib beraymi desam, unamadi, orqasiga qoshiq tiqadigan qilib qo'ydim.

8 - askiyachi: – Necha razmer kiyasiz desam, oyog'imni necha razmer kiyishini o'zim ham bilmayman. Rahmatillonikiga alohida qolip qo'ydim [2, 47].

Mazkur payrov sakkiz nafar ijrochining bir og'izdan chandishi orqali shakllangan askiyadir. Bunda poyabzal tikuvchi kosibning xatti-harakatlari, poyabzalning sifati va turlari, askiyachilarning laqablarigacha bo'lgan tavsiflar berilishi vositasida tinglovchilarga tag ma'nodagi tasvirlarni yashirin hadya etadi. Tag ma'noda kulgi ostiga olingan shaxs poyabzal yoki charm, teri tasviri orqali ong ostida ifodalanadi. Bir qaraganda, to'g'ri ma'noda poyabzalning belgilari aytilgan ko'rinadi, biroq shu belgilarning insonga ko'chirilishi tinglovchi ong ostida sodir bo'ladi. Tasvirning ong ostiga ruhiy ta'siri esa kulgining maydonga kelishiga zamin hozirlaydi.

Odatda, boshlovchi askiyachi mavzuga doir dastlabki qochiriqli gapni boshlaydi. Qolgan askiyachilar mavzuga doir belgi xususiyatlarni insonga ko'chirishga qaratilgan yashirin ma'noli ibora so'z va turli motivlarni o'ylab topishadi.

Askiyaning ichki shakllarini tadqiq etgan folklorshunos R.Muhamadiyev askiyaning shingil askiya va yakka askiya degan turlari mavjudligini qayd etadi. Olimning tushuntirishicha, shingil askiya sahnada ijro etilmasa-da, maishiy hayotda, kishilarning muloqotida kutilmaganda zakiylik san'atining go'zal bir namunasi sifatida maydonga keladi [10, 233].

R.Muhamadiyev ikki shoir suhbatidan bir shingil tariqasida quyidagi askiyani keltiradi: Qo'qonda Urfiy degan, Xo'jandda Kamol Xo'jandiy kabi shoirlar bir-biri bilan do'st bo'lib, Kamol Xo'jandiy Urfiyni mehmonga chaqiradi.

Supada suhbat qilib o'tirganlarida Kamol Xo'jandiyning kichkina qora kuchugi dasturxon yoniga kelib, hatto dasturxonga tegib ketsa ham, u indamas ekan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Urfiyning juda g'ashi kelib, achchig'i chiqibdi va oxiri so'rabdi:

Urfiy: Bu maxsumchaga nima nom qo'yganlar?

Kamol Xo'jandiy: Urfiy nomlardan birini qo'yganmiz-da.

Urfiy: Omin, Kamolga yetsin! – deb javob qaytaribdi.

Keltirilgan misol askiyaning shingil shakliga mansub bo'lib, u ikki kishi suhbatida hozirjavoblik asosida maydonga kelgan va ijro qilingan. Shuningdek, askiyaning afsona usuli ham mavjudligi, bu usul ikki kishi dialogik nutqi asosiga askiya yaratishni talab qilishi ham R.Muhamadiyevning tadqiqotida keltirilgan.

XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, folklor janri sifatida ikki va undan ortiq kishilar tomonidan taraf-taraf bo'lib ijro qilinadigan bellashuvga asoslangan, mohiyatida hazil-mutoyiba yetakchilik qiladigan dialogik yoki polilogik nutqdir. U og'zaki tarzda og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib keladigan jamoa tomonidan yaratilgan noyob og'zaki adabiy asar bo'lib, xalq og'zaki badiiy ijodiyoti namunalarining tabiatiga xos bo'lgan badiiy, estetik, didaktik vazifalar bilan birga psixologik vazifani ham bajaradigan og'zaki so'z san'ati namunasidir.

Askiya o'zining tabiati: yumorga asoslanganligi, hazil asosiga qurilishi, kulgining maydonga kelishiga sabab bo'lishi, muayyan mavzu doirasida metaforik mazmundagi so'zlar va iboralarning qo'llanilishi, dialogik nutq asosida shakllanishi, binar mohiyat kasb etishi bilan hazil nazariyasiga mutanosib o'zbek folklorining mustaqil janri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Askiya jahon va turkiy xalqlar filologiya fanida alohida mustaqil tadqiq etilmagan, faqat XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab og'zaki so'z san'ati namunasi sifatida o'rganila boshlangan. Bu borada o'zbek folklorshunosi R.Muhamadiyevning nomzodlik dissertatsiyasi alohida e'tiborga molikdir. XXI asrga kelib askiyaning lisoniy jihatlari o'zbek tilshunosi X.X.Do'smatov tomonidan tadqiq etilgan, xolos.

Askiya tur mansubiyati nuqtai nazaridan dramatik turga xos janr. Askiya xalq dramasi o'ziga xos ko'rinishlarini ifodalaydigan, sahna namoyishiga mo'ljallanganligi bilan xarakterlidir. Askiyada ishtirokchilar sahna personajlari vazifasini bajaradi va ularning dialogik xarakterdagi nutqi tinglovchilar tomonidan baholanadi. Masalaning ayni shu jihati mazkur janrning tur mansubiyatini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.07.2023 yildagi PQ-222-sonli "Respublikada milliy askiya va qiziqchilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori <https://lex.uz/docs/-6531520>
2. Andijon davlat universiteti folklor arxivi. Folklor ekspeditsiyasi materiallari. 47-daftar.
3. Do'smatov X.X. Askiya matnining lingvostilistikasi. Filol.fan.b. fals. dokt... diss. – Farg'ona, 2018. – 135 b.
4. Elxan Nəcəfovun. Ədəbiyyat nəzəriyyəsi. Boku, "HƏDƏF"// Vikipediya, azad ensiklopediya
5. Imomov K., Mirzayev T., Safarov O. va Sarimsoqov B. Askiya. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 340 b.
6. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2017. – 180 b.
7. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Barkamol fayz media nashriyoti, 2017. – B.103.
8. Madayev O., Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 208 s.
9. Mirzayeva S., Xolbutayev G'. Farg'ona vodiysi askiya san'ati – Andijon: Arjumand media, 2019. – 144 b.
10. Muhamadiyev R. Askiya (o'zbek xalq ijodiyotining janri). Filol.fan.nom.diss. – Toshkent, 1961. – 233 b.
11. Muxammadiyev R. (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi) O'zbek xalq og'zaki ijodi. Askiya. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – 288 b.
12. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati. – Toshkent: Fan, 1971. – 244 b.
13. Qodirov M. O'zbek an'anaviy teatri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 248 b.
14. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – Toshkent, O'qituvchi, 1981. –105 b.
15. Sultonov H. Askiya. Kulgi chehraning guli. – Toshkent: Cho'lpon, 1998. –185 b.
16. Алексеев В.Л. Оружием политической сатиры. – М.: Мысль, 1979. – 244 с.
17. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. монография, сборник работ. – М.: Художественная литература, 1986. – С.3. (общ. С.543)
18. Бахтин М.М. Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса. – М.: Художественная литература, 1990. – 543 с.
19. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 404 с.
20. Дмитриев А.В. Социология юмора. – М., 1996. – 214 с. Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. – М.: Искусство, 1977. – 184 с.

21. Карасев Л.В. Философия смеха. – М.: Рос. гуманит. ун-т, 1996. – 224 с.
22. Лук А.Н. О чувстве юмора и остроумии. – М.: Искусство, 1966. – С. 31-32.
23. Материал wortwuchs.net сайтидан олинди.
24. Мухтар Казымоглы. Генезис и поэтика смеха в азербайджанском фольклоре. – Баку: Элм ве техсил, 2017. – 360 с.
25. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – 183 с.
26. Троицкая А.Л. Народный театр в Узбекистане // Восточный сборник. 1990. Вып. № 4. – С. 144-151.
27. Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха // Аристофан. – М., 1956. – С. 81-108